

SIYOB ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI
TEXNIKUMI

Mahammadiyeva Sevara Xidirboyevna

Yoqubova Guldiyora Umedjon qizi

Anotatsiya: |Ottirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) retrovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik ikki davrda bo'linadi. OITV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OITV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali namoyon bo'lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtda Parijda professor Lyuk Montanye hamda AQSHda professor Gollo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan.

Kalit so'zlar: Ottirilgan Immun Tanqislik Sindromi, immunitet, virus, antitella, qon, infeksiya, organism, giyohvand, narkaman, AQSH, Lyu Montanye, Gollo,

OITS (Ottirilgan Immun Tanqisligi Sindromi)

Ottirilgan immun tanqisligi sindromi bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta'sir ko'rsatadi. Virus odam organizmiga tushgach 2-3 kundan so'ng 25-30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Harorat kutarilishi, tunda terlash, bo'g'imlar va bosh og'rig'i, lohaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda ayniqsa uning yuqori qismida toshmalar paydo bo'lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog'liq. Lekin bu davrda antitellolarni aniqlash natija bermaydi chunki immunitet tizimining javobi hali to'liq shakillanmagan bo'ladi. Kasallikning bu davri 8-10 yilgacha ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda OITV infeksiyasi tashhisini qo'yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo'lgan antitellolarni aniqlash – immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. OITS OITV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Kasallikning yuqish yo'llari kasallik

virusi infeksiya yuqqan odamning qonida, erkak shahvatida, ayollarning jinsiy a'zolari chiqindilarida va ko'krak sutida bo'ladi. Shuning uchun OITS asosan uch xil yo'l bilan yuqadi. OITS bilan kasallanganlarning ko'pchiligini narkamanlar (giyohvandlar), fohishalar gomo va biseksuallar tashkil etadi. OITS OITV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Virus bilan organizm o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, virusning ustunligi bilan yakun topadi. Shu vaqtda OITS davri boshlanadi. Bu davrda odam organizmi har qanday mikrobgaga mikrobgaga bardosh berish xususiyatini yo'qotadi. Jumladan nafas, me'da ichak, siydik yo'llarida doimo mavjud bo'lgan va kasallik qo'zg'ata olmaydigan mikroblar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chiqarishi mumkin. OITS organizmga jinsiy aloqa parenteral muolajalar (nosteril ignalar, shprints va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda) virusni yuqtirib olgan onadan homlaga homladorlik davrida, tug'ish jarayonida va gudak emiziladigan bo'lsa ko'krak suti bilan yuqib qolishi mumkin. Virusni yuqtirgan inson uzi sezmay qolishi ham mumkin. Virusning asosiy belgilari; tananing haddan ziyod arriqlab ketish, tana haroratning doimiy holda ko'tarilib yurishi, ishtahaning yuqolishi, immunitetning keskin tushib ketishi, limfa tugunlarining kattalashishi hisoblanadi. OITS kasalligining hozirgi kunda davosi topilganicha yuq. Butun jahon bo'yicha 1 dekabrni OITS ga qarshi kurash kuni deb e'lon qilingan. OITS kasalligi profilaktikasi infeksiya keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lganligi uchun muhofaza tadbirlari ijtimoiy hayotning barcha soha vakillari ishtirokida olib borilishi lozim. OITS kasalligi bilan chalingan bemorlar ism familiyasi sir saqlanadi. OITS dispanserlari mavjud.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. "Bemorlarni uyda va shifoxonada davolash" O'zbekiston milliy ensklapediyasi. Toshkent 2011y.
2. "Hamshiralik ishi" Umarova. T. YU. Qayumova I.A. Ibragimova. M.Q. Toshkent 2003 y
3. "Hamshiralik ishi asoslari" K. O'. Zokirova. D.O'. To'xtamatova. S.A. Mirzaboyeva Toshkent 2010 y

4. Internet vep saytlar. Ziyo net. Uz.